

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

ZIYAYEV AZAMAT MIRZA O'G'LI

**TIJORAT BANKLARINING UY-JOY QURILISHINI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tashkent shahar – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ziyayev Azamat Mirza o‘g‘li

Tijorat banklarining uy-joy qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarini
takomillashtirish.....3

Зияев Азамат Мирза угли

Совершенствование механизмов финансирования коммерческими банками
жилищного строительства29

Ziyaev Azamat Mirza ogli

Improving mechanisms for financing housing construction by commercial
banks57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

ZIYAYEV AZAMAT MIRZA O'G'LI

**TIJORAT BANKLARINING UY-JOY QURILISHINI
MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tashkent shahar – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.1.PhD/Iqt5017-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Absalamov Akram Tolliboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Norov Akmal Ro'zimamatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mirpulatova Luiza Mansurovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori


Yetakchi tashkilot: Alfraganus universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «02» 08 kuni soat 16⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (79 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «16» 07 kuni tarqatildi.
(2025 yil «21» 06 da 39 raqamli reestr bayonnomasi).





N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.X. Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar va global tendensiyalar tijorat banklari faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan hozirgi sharoitda, uy-joy qurilishini moliyalashtirishda banklar oldida yangi talab va vazifalar paydo bo'lmoqda. Xususan, 2024-yilda "global mortgage-lending" bozorining hajmi 12,87 trillion AQSh dollarini tashkil etib, 2024-2030-yillarda o'rtacha har yili 9,8 %ga o'sib borishi kutilmoqda. Global uy-joy qurilishi bozorining hozirgi hajmi 4,92 trillion AQSh dollar atrofida bo'lib, 2030 yilg aborib 8,5 trillion AQSh dollarini tashkil etishi kutilmoqda. Xulosa qilib aytganda, global uy-joy qurilishi bozori tobora kengayib bormoqda. Bu esa tijorat banklarining moliyalashtirish strategiyasida ijodiy yechimlar va zamonaviy instrumentlarni joriy etishni talab qiladi.

Jahonda uy-joy qurilishi va ipoteka bozorini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda moliyaviy resurslar tannarhiga ta'sir etuvchi - valyuta bozoridagi keskin o'zgarishlar, loyihalarni moliyalashtirishda risk menejmenti, banklar tomonidan qo'llanilayotgan ipoteka mahsulotlari samaradorligini baholash, yashil moliyalashtirish (Green financing) bo'yicha barqaror qurilish loyihalarini (energiya tejankor, ekologik toza) moliyalashtirish uchun maxsus "yashil kreditlar" va preferensial foiz stavkalari joriy etishga e'tibor qaratilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar banklarining uy-joylar qurilishini moliyalashtirishga oid faoliyatlarini samarali yo'lga qo'yish va investorlar faolligini oshirish mexanizmlarini shakllantirish bilan bog'liq muammolar yetarlicha o'rganilmagan. Bu, o'z navbatida, uy-joy va qurilish bozorlarining samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholi sonining yiliga o'rtacha 800 ming kishiga, yangi tashkil topayotgan oilalar sonining esa 300 mingga yaqin ortayotgani turar joy qurilishini jadal rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Biroq amaliyotda bu jarayonda bir qator tizimli va institutsional muammolar mavjud. Xususan, tijorat banklari tomonidan uy-joy qurilishini moliyalashtirishda uzoq muddatli va past foizli kredit mahsulotlarining yetishmasligi, yuqori kredit xavfi, garov obyektlarining likvid emasligi kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qurilishi tugallanmagan yoki rasmiylashtirilmagan obyektlarning kredit ta'minoti sifatida qabul qilinmasligi kreditlash hajmining cheklanishiga olib kelmoqda. 2024 yilda yalpi ichki mahsulot real hajmi o'tgan yilga nisbatan 6,5 foizga ortib, nominal hajmi 1 454,6 trln.so'mga yetgan bo'lsa, qurilish tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati 8,8 foizga ortib, 96,8 trln.so'mni tashkil etdi. Raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish sohasidagi o'sish surati umum ko'rsatkichlarga nisbatan yuqoriroqdir. Ya'ni uy-joylar qurilish hajmining oshishi, uy-joy fondining ortishiga, yalpi ichki mahsulot hajmining oshishga hamda aholini ish bilan bandlik darajasini ko'tarilishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5886-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2020 yil 27 maydagi “Ko‘p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi PQ-4732-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 martdagi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlarini ajratish orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6186-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdaqi ““Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-32-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 dekabrdaqi “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-33-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 apreldaqi “2023 yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-51-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 apreldaqi “2024 yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 yanvardaqi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-sonli Farmoni, shuningdek mazkur sohaga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Uy-joylar qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar, V.V.Puxova, V.A.Moiseyev, V.N.Gorlov, V.E.Pavlovich, V.A.Nosov, A.M.Yakushev, L.Sh.Gimadiyeva, Sh.Otman, V.M.Tarasyuk, A.N.Asaul, G.Kavaarpuo, S.G.Sternik, M.A.Ivantrilarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan¹.

¹ В.В.Пухова, Совершенствование механизма проектного финансирования строительства жилой недвижимости: диссертация-2021 год; Моисеев В.А., Прокофьев К. Ю. Механизмы финансирования жилищного строительства //Региональная экономика: теория и практика. – 2013. – №. 48. – С. 31-41.; Горлов В.Н. Жилищно-строительные кооперативы // Постсоветский материк. 2023. №2 (38).; Павлович В.Е., Клинецвич И.А. Особенности использования факторинга юридическими лицами //«Современные мировые научные достижения в контексте. – 2024.; Носов В. А. Проблемы инвестиционно-строительной деятельности в мире и в России //Нормирование и оплата труда в строительстве. – 2020. – №. 3. – С. 30-37.; А.М.Якушев, Развитие механизма финансирования жилищного строительства: диссертация – 2006 год; Романова А.И., Гимадиева Л.Ш. Учебное пособие, Экономика строительства, гриф Другие грифы, издательство: КГАСУ, Казань, Россия, 2024, 115 с., 7 п.л.; Ш.Отман “Секьюритизация и право” Учебник.-М.: ИНФРА-М, 2008.,-460 с; Тарасюк В.М. Жилищно-строительные кооперативы как оптимальная модель обеспечения населения доступным жильем // Недвижимость и инвестиции. Правовое регулирование. 2009. № 2 (39). С. 36—39; А.Н.Асаул, С.Н.Иванов, М.К.Старовойтов “Экономика недвижимости” Учебник для вузов. - СПб.: АНО «ИПЭВ», 2009. - 304 с.; Kavaarpuo, G., Mintah, K., & Donkor-Hyiaman, K. A. (2023). Financing Housing Development in an Underdeveloped Financial Market: Learning from Developers’ Financing Adaptations? Housing Policy Debate, 34(6), 918–945. <https://doi.org/10.1080/10511482.2023.2237004>; S.G.Sternik Housing construction financing strategy: opportunities and risks, II International Scientific Conference GCPMED 2019 "Global Challenges

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlari Sh.Z.Abdullayeva, T.Karaliyev, N.X.Jumayev, A.A.Omonov, U.Azizov, Sh.Sh.Shoja'zamiy, S.E.Elmirzayev, F.K.Xolmamatov, A.T.Absalamov, I.X.Davletov, A.Uzoqov, B.B.Nurmuhamedov, B.S.Mamatov, O'.A.Haydarov, M.S.Berdaliyeva, Sh.G'.Rasulova, K.K.Xannarovlarning ilmiy izlanishlarida ipoteka bozori rivojlanish tendensiyalari, uy-joy qurilishi bozori ishtirokchilari faoliyati tahlili, tijorat banklari tomonidan qurilish tashkilotlarini kreditlash amaliyotlari hamda ipoteka qimmatli qog'ozlariga qilinadigan investitsiyalar kabi masalalar tadqiq etilgan².

Ammo tijorat banklarining uy-joylar qurilishini moliyalashtirish borasidagi faoliyati hamda bugungi kundagi moliyalashtirish usullari kompleks shaklda "qurilish bozori va bank tizimi"ning birgalikdagi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarida yetarlicha ko'rib chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent Xalqaro Universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan ustuvor yo'nalishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – mamlakatimiz uy-joy qurilishi bozorini rivojlantirishga hamda moliyalashtiruvchi tijorat banklarining ushbu yo'nalishdagi mahsulot turlari sifati va ko'lamini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy uy-joy qurilishi metodlari va uni moliyalashtirish usullari hamda elementlarini tadqiq etish;

mustaqillik yillarida qurilgan uy-joylar to'g'risidagi ma'lumotlar tahlilini amalga oshirish;

and Prospects of the Modern Economic Development", 1128-1136. DOI: 10.15405/epsbs.2020.03.162; Ivantri, M.A., Azizi, M.H., Yudha, A.T.R.C. and Saputra, Y. (2024), "Gold-based housing financing model: proposing an alternative housing financing model for Islamic bank", Journal of Islamic Accounting and Business Research, Vol. ahead-of-print., <https://doi.org/10.1108/JIABR-12-2023-0414>

² Sh.Z.Abdullayeva BANK ISHI, darslik – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.; Karaliyev T. va boshqalar. "Bank ishi" Darslik-T.: "Fan va texnologiya", 2016.347 b.; N.X.Jumayev Tijorat banklarida yangi bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish yo'llari, Вестник Хорезмской академии Маъмуна – 2022 yil, 8/2-son, 25-28 betlar; Bobakulov T.I. va boshqalar Monetar siyosat: o'quv qo'llanma, Toshkent.: "Iqtisod-Moliya" 2018 yil, 224 bet; Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari". I.f.d. ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan diss. -Toshkent 2008 y., Azizov U. "Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari". I.f.n. ilm. dar. olish uchun taqdim etilgan diss. avtoreferati. -Toshkent 2004.-26 b.; Shoja'zamiy Sh.Sh. "Формирование рынка ипотечных ценных бумаг" // Рынок, деньги и кредит. – Т., 2006 г., специальный выпуск. – С. 43-44.; Элмирзаев С.Э. и др. "Финансовый рынок". Учебник. – Тошкент.: "Iqtisod-Moliya", 2019-400 c; Xolmamatov F.K. Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish – dissertatsiya, Toshkent – 2019 yil; Absalamov A.T. Banklar likvidligi va kapitallashuv darajasining bank kredit kanali samaradorligiga ta'siri. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024 yil, 2(10):14–22 bet; I.X.Davletov Qurilish iqtisodiy, O'quv qo'llanma – Toshkent.: 2019 yil, 256 bet.; Uzoqov A., Ergasheva Sh. Инвестицияларни ташкил этиш ва молиялаштириш. Ўқув қўлланма-Т.:2007, 223 бет.; B.B.Nurmuhamedov O'zbekistonda ipoteka bozorini rivojlantirish masalalari – dissertatsiya, 2022 yil; Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish, Darslik.: Toshkent 2014 y.608 bet.; Ў.А.Хайдаров Миллий иқтисодийёт доирасида инвестиция фаолиятини молиялаштириш механизмини такомиллаштириш – дисс., 2020 йил; Бердалиева М. Uy-joy qurilishini davlat-xususiy sheriklik asosida va ulushli moliyalashtirish – Перспективы реформирования и устойчивого развития национальной экономики. – 2024. – № 1. – С. 276-9.; Rasulova Sh.G'. (2022). Qurilish iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma – JPI-213 bet. UO'K: 338.45:69(075.8); K.K.Xannarov O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlashdagi murakkabliklar va ularning yechimlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 7 ноябрь 2024 г.;2(11):9–13.

tijorat banklari tomonidan uy-joy qurilishini moliyalashtirishda qo'llanilayotgan usullar, ular o'tasidagi farqli jihatlar, ushbu yo'nalishdagi bank mahsulotlari samaradorligini tahlil qilish va baholash;

xorijiy banklar va moliya tashkilotlarining tajribalarini o'rganib chiqish va uy-joy qurilishi jarayonining ishtirokchilariga, xususan, moliyalashtiruvchi tijorat banklariga har tomonlama qulay bo'ladigan jihatlarini yoritib berish;

tijorat banklarining uy-joy qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarining istiqboli shakllari bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston uy-joy qurilishi bozorida faol ishtirok etuvchi tijorat banklaridan biri bo'lgan "Ipoteka-bank" ATIB tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini uy-joy qurilishini moliyalashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish va abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarga ishlov berish, kuzatish, tizimlashtirish, taqqoslash, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ipoteka krediti orqali ulush kiritish asosida moliyalashtiriladigan uy-joy qurilishi loyihalarida, buyurtmachi qurilish tashkilotlaridan qurilishni yakuniga yetkazish hamda xonadonlarni garovga taqdim etilishi kafolati sifatida maqsadli depozitlarni shakllantirish amaliyotini joriy qilish taklifi ishlab chiqilgan;

kreditning qaytmaslik riskini kamaytirish va tijorat banklari kapitaliga bosimni pasaytirish maqsadida ulush kiritish asosida uy-joy qurilishini moliyalashtirishda ajratiladigan ipoteka kreditlari mahsulotlari shartlariga boshlang'ich badal miqdorini 26 foizga yetkazish taklifi asoslangan;

ipoteka bozorida barqaror loyihalarning moliyalashtirilish, ulushdorga kafolatlangan moliyaviy himoyani taqdim etish, hamda potensial ulushdorlar orasida ishonchni orttirish maqsadida uy-joy qurilishini ulushdorlik asosida moliyalashtirishda buyurtmachi tashkilot tomonidan ulushdor bilan tuzilgan shartnoma shartlari bajarilishi yuzasidan "bank kafolati"ga ega bo'lishi lozimligi taklif etilgan.

qurilish ishlari muddatidan avval yakunlanganda sotuvdan tushayotgan mablag'larni kredit qarzdorliklarini muddatidan avval so'ndirishga yo'naltirishni nazarda tutuvchi moslashuvchan to'lov jadvallaridan va eskrou hisobvarag'lardan foydalanishni joriy qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ulush kiritish asosida (ipoteka krediti orqali) moliyalashtiriladigan uy-joy qurilishi loyihalarida, buyurtmachi qurilish tashkilotlaridan qurilishni yakuniga etkazish hamda xonadonlarni garovga taqdim etilishi kafolati sifatida maqsadli depozitlarni shakllantirish amaliyoti Ipoteka-bankda joriy qilingan;

ulush kiritish asosida uy-joy qurilishini moliyalashtirish maqsadida ajratiladigan ipoteka kreditlari mahsulotlari shartlariga boshlang'ich badal miqdorini oshirish to'g'risidagi o'zgartirishlar kiritilgan;

uy-joy qurilishini moliyalashtirishda pudrat tashkilotlariga kredit ajratish amaliyoti bilan bir vaqtda, bankka foizsiz daromad keltiruvchi - “Ulushdor bank”, “Faktor bank”, “Investor bank” kabi bank mahsulotlarini joriy qilish taklifi ishlab chiqilgan;

qurilish ishlari muddatidan avval yakunlanganda sotuvdan tushayotgan mablag‘larni kredit qarzdorliklarini muddatidan avval so‘ndirishga yo‘naltirishni nazarda tutuvchi moslashuvchan to‘lov jadvallaridan hamda “eskrou” hisobvarag‘idagi mablag‘larni kreditni so‘ndirish uchun yo‘naltirishda maxsus hisobvarag‘dan foydalanish tartibi amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqqligi, ma‘lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar O‘zbekiston uy-joy qurilishi bozori va bank tizimi “juftligi”ning yanada rivojlanishiga hamda ushbu yo‘nalishda olib boriladigan kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy izlanishlar davomida ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalardan “Bank ishi”, “Moliya”, “Islom bank ishi” kabi o‘quv fanlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, darsliklarni ishlab chiqishda metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklarining uy-joy qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ipoteka krediti orqali ulush kiritish asosida moliyalashtiriladigan uy-joy qurilishi loyihalarida, buyurtmachi qurilish tashkilotlaridan qurilishni yakuniga yetkazish hamda xonadonlarni garovga taqdim etilishi kafolati sifatida maqsadli depozitlarni shakllantirish amaliyotini joriy qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 apreldagi “2024 yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni 10-ilovasining 18-bandi ijrosini ta‘minlashga xizmat qilgan (OTP Group “Ipoteka-bank” ATIBning 2025 yil 19 fevraldagi 2-3.1/5711-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, maqsadli depozit hisobvarag‘iga loyiha moliyalashtirilishidagi bo‘nak hajmidan kam bo‘lmagan miqdordagi mablag‘larini kirim qilinishi, kredit riski pasaygan hamda Ipoteka-bankning 2024 yilga mo‘ljallangan Kreditlash Nizomi talablari ijrosini ta‘minlashga imkoniyat yaratib bergan;

kreditning qaytmaslik riskini kamaytirish va tijorat banklari kapitaliga bosimni pasaytirish maqsadida ulush kiritish asosida uy-joy qurilishini moliyalashtirishda ajratiladigan ipoteka kreditlari mahsulotlari shartlariga boshlang‘ich badal miqdorini 26 foizga yetkazish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 apreldagi “2024 yilda ipoteka kreditlarini ajratish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilashga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-70-sonli Farmoni 10-ilovasining 19-bandi ijrosini ta‘minlashga xizmat qilgan (OTP Group “Ipoteka-bank” ATIBning 2025 yil 19 fevraldagi 2-3.1/5711-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, “Imkoniyat” kredit mahsuloti pasportiga o‘zgartirish kiritilib, ajratiladigan kreditlarning riskka tortilganlik darajasi pasaygan, kapital monandiligi ko‘rsatkichi yaxshilangan hamda qo‘shimcha ravishda 80,0 mlrd.so‘m bank kreditlari ajratilishiga erishilgan;

ipoteka bozorida barqaror loyihalarning moliyalashtirilish, ulushdorga kafolatlangan moliyaviy himoyani taqdim etish, hamda potensial ulushdorlar orasida ishonchni orttirish maqsadida uy-joy qurilishini ulushdorlik asosida moliyalashtirishda buyurtmachi tashkilot tomonidan ulushdor bilan tuzilgan shartnoma shartlari bajarilishi yuzasidan “bank kafolati”ga ega bo‘lishi lozimligi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-sonli Farmoni 2-ilovasi 4,10-bandlari ijrosini ta‘minlashda xizmat qilgan (OTP Group “Ipoteka-bank” ATIBning 2025 yil 19 fevraldagi 2-3.1/5711-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, “Imkoniyat” kredit mahsuloti pasportiga o‘zgartirish kiritilishi asosida ulushdorlarning bankka ishonchi ortib, har bir loyiha bo‘yicha qo‘shimcha ravishda o‘rtacha 15 foiz yangi mijozlar bankka jalb qilinishiga erishilgan;

qurilish ishlari muddatidan avval yakunlanganda sotuvdan tushayotgan mablag‘larni kredit qarzidorliklarini muddatidan avval so‘ndirishga yo‘naltirishni nazarda tutuvchi moslashuvchan to‘lov jadvallaridan va eskrou hisobvarag‘lardan foydalanishni joriy qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-11-sonli Farmoni 2-bandi z-kichik bandi ijrosini ta‘minlashda xizmat qilgan (OTP Group “Ipoteka-bank” ATIBning 2025 yil 19 fevraldagi 2-3.1/5711-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, kredit portfeli tahlil qilinib 35 foiz holatda uy-joy qurilishini moliyalashtirish bo‘yicha ajratilgan 175,0 mlrd.so‘m kreditlarni muddatidan avval so‘ndirish imkoniyatlaridan foydalanilmaganligi aniqlangan, kredit shartnomalariga bankka qo‘shimcha vakolat beruvchi tegishli bandlar kiritilgan, hamda “eskrou” hisobvarag‘idagi mablag‘larni kreditni so‘ndirish uchun yo‘naltirishda “ko‘prik” vazifasini bajaruvchi maxsus hisobvarag‘lardan foydalanish belgilab qo‘yilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e‘tirof etilgan respublika ilmiy nashrlarida 5 ta, xorijiy ilmiy nashrlarida 2 ta ilmiy maqola, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma‘ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tarkibi 135 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Tadqiqot ishining **“Uy-joy qurilishini moliyalashtirishning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklari tomonidan uy-joy qurilishini moliyalashtirishda qo‘llaniladigan mexanizmlar tasnifi, ularning ilmiy nazariy asoslari, taraqqiyot bosqichi va uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tijorat banklarining mazkur sohadagi faoliyatining huquqiy asoslari tadqiq etilgan va ular yuzasidan nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Uy-joy qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa tijorat banklari ishtirokida, nafaqat iqtisodiy resurslar taqsimoti, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishda bir qator mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Sh.Abdullayeva ipoteka kreditlari tizimida davlat va tijorat banklari o‘rtasidagi hamkorlikning kombinatsiyalashgan modelini asoslab bergan. T.Karaliyev o‘z izlanishlarida xususiy banklar uchun ipoteka kreditlaridagi risklarni minimallashtirishga qaratilgan mexanizmlarni ilgari surgan. Ayniqsa, kredit ta‘minoti, garov bahosi va foiz stavkalari muvozanatini ta‘minlash zarurligiga urg‘u bergan. N.X. Jumayev loyihalarning xususiyatlarini inobatga olgan holda, makroiqtisodiy omillar asosida kredit shartlarini shakllantirish mexanizmini taklif qilgan. Bu yondashuv bank tizimi barqarorligini saqlagan holda qurilish sohasini rag‘batlantirish imkonini beradi. A.A. Omonov bank resurslarini davlat subsidiyalari bilan uyg‘unlashtirish orqali aholining turar joyga bo‘lgan ehtiyojini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini asoslagan. Shuningdek, A.T. Absalamov va I.X. Davletov kreditlarning foiz stavkalarini moslashuvchan tarzda belgilash tizimini tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uy-joy qurilishini tijorat banklari orqali moliyalashtirishda kompleks yondashuv – davlat siyosati, kredit infratuzilmasi, garov ta‘minoti va foydalanuvchi ehtiyojlari asosida shakllantirilishi lozim. Bu esa nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini tizimli ravishda hal etish imkonini beradi.

Uy-joylar qurilishini moliyalashtirish uchun nafaqat pudrat tashkilotlariga balki jismoniy shaxslarga ham kredit ajratish amaliyotlari 2021 yildan boshlab rivojlana boshladi. Bunda tijorat banklari ulushdorlardan qabul qilingan badal mablag‘lari hamda ipoteka kreditlari hisobiga qurilishni ulush kiritish asosida moliyalashtirib kelmoqdalar.

Uy-joy qurilishi bozori rivojlangan mamlakatlarda, xususan Rossiyada joriy etilgan tartiblardan biri bu uy-joy qurilishi kooperativlari (UJK) hisoblanadi. Bunda uy-joy sharoitini yaxshilashni maqsad qilib qo‘ygan jismoniy shaxslar hamda boshqaruv kompaniyalari o‘z hoxishlariga ko‘ra pay badallarini kiritish orqali birlashadilar. Yer hujjatlarni rasmiylashtirish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab

chiqish hamda kelishish kabi qurilish oldi ishlari bajarilgunga qadar a'zolar tomonidan pay badallari shakllantiriladi. Keyingi bosqichda pudrat tashkiloti tanlanib, tegishli qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish boshlanadi. Banklar tomonidan UJQK bilan hamkorlikda ishlayotgan pudratchini kreditlash, UJQK a'zolarining yetarli bo'lmagan pay badallarini shakllantirish uchun kredit ajratish, professional vositachilik xizmatlarini ko'rsatish kabi amaliyotlar bajariladi.



1-rasm. Tijorat banki tomonidan "eskrou" hisobvarag'i orqali uy-joylar qurilishini moliyalashtirish shakli.³

Uy-joy qurilishini loyihaviy "eskrou" hisobvarag'i orqali moliyalashtirish mexanizmi uy-joy qurilishi davrida mijozlarning mablag'lari kafolatini ta'minlab, qurilish tashkilotlarining arzon narxlarda bank kreditidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ya'ni xonadon sotib olish istagida bo'lgan mijoz pudrat tashkilotining bankdagi maxsus hisobvarag'iga o'zining jamg'arma omonat hisobvarag'i orqali pul mablag'larini to'laydi. Ushbu mablag'lar moliyalashtiruvchi tijorat banki tomonidan uy-joy foydalanishga qabul qilingunga qadar deponentlanadi, ya'ni qurilish tashkilotining ushbu mablag'lardan foydalanish imkoniyati cheklanadi. Qurilish tashkilotining bu kabi mexanizm orqali pul oqimlaridan to'silib qolishi, moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga keltiradi. Ushbu holat inobatga olinib bank tomonidan quruvchiga imtiyozli shartlarda kreditlar ajratiladi.

³ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ushbu mexanizm qurilish tashkilotlari tomonidan iliq qabul qilinmasligi tabiiy ammo bugungi kunda uy-joy qurilishi bozorida salohiyatsiz tashkilotlarning paydo bo'lishi uy-joylar uchun oldidan to'lov qilishdagi ishonch darajasini tushurib, realizatsiyani susaytirib qo'ymoqda. Mazkur mexanizm Rossiya Federatsiyasida 2019 yil 1 iyul sanasidan amaliyotga joriy qilingan bo'lib, o'sha yilning sentyabr oyidan boshlab qo'llanilishi boshlangan bo'lsa, shu vaqtda 3 850 ta qurilish tashkilotlari faoliyat ko'rsatib turgan. O'sha yilning yakuniga borib, faoliyat ko'rsatuvchi qurilish tashkilotlari soni 8,3 foizga yoki 321 taga qisqargan.

1-jadval

Rossiya Federatsiyasida uy-joylar qurilishini “eskrou” hisobvarag‘i orqali loyihaviy moliyalashtirish ko‘rsatkichlari (dona)⁴


№	Ko‘rsatkichlar	Jami		Shundan, «eskrou» hisobvarag‘i orqali moliyalashtirilgan qismi	
		01.01.2020 y.	01.01.2025 y.	01.01.2020 y.	01.01.2025 y.
1.	Qurilish tashkilotlari soni	3 529	4 210	1 073	4 123
2.	Qurilishiga ruxsat berilgan uylar soni	6 983	7 076	1 831	6 947
3.	Xonadonlar soni	2 152 000	2 327 000	518 000	2 275 000

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki 2020 yilning 1 yanvar holatiga 2 152,0 ming xonadondan 518,0 mingtasi bo'yicha to'lovlar “eskrou” hisobvarag‘iga kirim qilingan bo'lsa, 2025 yilning mos davrida qurilishi moliyalashtirilayotgan 2 327,0 ming xonadondan (97,8 foizi) 2 275,0 mingtasi bo'yicha to'lovlar aynan shu tartibda amalga oshirilgan. Mazkur ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki 5 yil mobaynida uy-joy sotib oluvchi hamda qurilishda investor sifatida ishtirok etuvchi shaxslarga ishonchli bo'lgan mazkur moliyalashtirish mexanizmining salmog‘i 25-30 foizdan 98 foizga qadar ko'paygan.

Uy-joy qurilishini faktoring operatsiyasi orqali moliyalashtirish. Faktoring operatsiyalari mijozlarga foizsiz moliyalashtirish va qurilish kompaniyalarining pul oqimini yaxshilash imkoniyatini beradi. Bu uzoq muddatli bo'lib to'lash sharti bilan uy-joy xarid qilish biznesini rivojlantirish uchun qurilish loyihalarini kerakli mablag' bilan ta'minlashi mumkin.


Uy-joy qurilishini moliyalashtirishda faktoring operatsiyalari sotilgan aniqroq qilib aytganda quriladigan xonadon uchun to'lovni sotib oluvchi tomonidan kechiktirish shaklida bank tomonidan sotuvchi-qurilish tashkilotlariga taqdim etiladigan diskont ko'rinishida foizsiz doromad keltiruvchi tijorat mahsuloti asosida vujudga keladi.

⁴ Rossiya federatsiyasining Uy-joy qurilishi yagona axborot tizimi rasmiy sayti <https://наш.дом.рф> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2-rasm. Rossiya Federatsiyasida uy-joylar qurilishini “eskrou” hisobvarag‘i orqali moliyalashtirish salmog‘i⁵

Banklar tarafidan uy-joy qurilishni obligatsiyalar orqali moliyalashtirish. Obligatsiyalar chiqarish moliyalashtirishning juda moslashuvchan shakli hisoblanadi, chunki emitent taklif parametrlarini (foiz stavkasi, to‘lov muddati, garov) belgilaydi. Obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan mablag‘lar qurilish ishlarini davom ettirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu qurilish ishlarini moliyalashtirishga intilayotgan kompaniyalar uchun bank kreditiga munosib alternativ hisoblanadi.




3-rasm. Tijorat banki tomonidan obligatsiyalar orqali uy-joy qurilishini moliyalashtirish jarayoni⁶

⁵ Rossiya federatsiyasining Uy-joy qurilishi yagona axborot tizimi rasmiy sayti <https://наш.дом.рф> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁶ Normativ huquqiy hujjatlar va tijorat bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ko‘p xonadonli uylar qurilishi loyihalarida, qurilish tashkilotlaridan loyiha umumiy qiymatining 30 foiz miqdorida o‘z ulushi bilan qatnashishi talab qilinadi. Qurilish tashkilotlari mazkur holatda qimmatli qog‘ozlar orqali moliyalashtirish shaklini tanlaydilar, chunki bu ularga qurilish ishlarini tashkil qilishda, shuningdek yer maydonlarini sotib olishda aktivlarni sotmaslik imkonini beradi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda uy-joy qurilishi loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining faoliyati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimizda banklarning mazkur yo‘nalishdagi faoliyati tendensiyalari OTP group “Ipoteka-bank” ATIB misolida tahlil qilingan.



4-rasm. “Ipoteka-bank” ATIB tomonidan qurilishi moliyalashtirilgan uy-joylar dinamikasi (mln. so‘mda)⁷


Bu holat quyidiglar bilan izohlanadi:
budjet mablag‘laridan ajratmalarning to‘xtatilishi;

⁷ “Ipoteka-bank” ATIB arxiv ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

tijorat banki bir vaqtning o'zida ham moliyalashtiruvchi tashkilot ham buyurtmachi rolini bajargan bo'lsa, pudrat tashkilotlari umum qurilish ishlarini olib borish bilan cheklanganligi;

qurilishi moliyalashtirilgan uy-joylarning realizatsiyasi moliyalashtiruvchi tijorat banki zimmasida bo'lib, qurilish tashkilotlari bu masala bilan shug'ullanishmaganligi;

ipoteka krediti uchun uzoq muddatli resurslarning qisqarib borganligi.



5-rasm. "Ipoteka-bank" ATIB tomonidan qishloq joylarida qurilishi moliyalashtirilgan uy-joylar soni hamda ajratilgan kreditlar dinamikasi⁸

2013-2021 yillarda Ipoteka-bank tomonidan qishloq joylarida jami 19 046 ta uy-joylar qurilishi moliyalashtirilgan. Mazkur uy-joylarning qiymati 3 121,0 mlrd.so'm bo'lib, shundan 524,0 mlrd.so'm qismi boshlang'ich badal mablag'lari, 97,0 mlrd. so'm qismi yakuniy badal mablag'lari, 2 501,0 mlrd. so'm qismi ipoteka kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan.

. regress Shundangarovgaolishga90kund Xonadonlarsoni , robust

Linear regression	Number of obs	=	9
	F(1, 7)	=	195.51
	Prob > F	=	0.0000
	R-squared	=	0.9646
	Root MSE	=	17.492

Shundangaro~d	Robust		t	P> t	[95% conf. interval]	
	Coefficient	std. err.				
Xonadonlars~i	.0801755	.005734	13.98	0.000	.0666167	.0937344
_cons	20.77518	9.386906	2.21	0.063	-1.421331	42.97168


Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki mazkur moliyalashtirish mexanizmi orqali uy-joylar qurilishi hajmi bir tekis o'sish trendiga ega emas. Bunga sabab sifatida qurilgan uy-joylarni ajratilgan ipoteka kreditlari ta'minoti sifatida garovga olishda vaqt bilan bog'liq muammoning mavjudligini keltirishimiz mumkin.

Bunda populyatsiyaning regressiya chizig'i quyidagicha:

⁸ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Garovga olishga 90 kundan ortiq vaqt sariflangan xonadonlar soni = $20,77 + 0,08 * \text{Qurilgan xonadonlar soni}$

Qurilish jarayonida ipoteka krediti ajratilib, mazkur kreditning ta'minoti sifatida uy-joy qurib bitkazilganidan so'ng undagi xonadon garovga olinishi ko'zda tutilgan bo'ladi. Xonadonlarning ishtirokchi banklar tomonidan o'z vaqtida garovga olinishiga to'sqinlik qiluvchi omillar mavjud bo'lgan vaqtda kelgusi yilning uy-joy qurilishi dasturida ularning ishtiroklari tabiiy ravishda susayadi.



6- rasm. Qurib bitkazilgan uy-joylardagi xonadonlarni garovga olish amaliyotiga talab etilgan vaqt (kunda)⁹

Bundan tashqari, boshlang'ich badal mablag'larining fuqarolardan yig'ib olishga mas'ul etib tijorat banklarining belgilanishi, shuningdek moliyalashtirish manbaalarining xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb qilish amaliyotiga uzoq vaqt talab qilinishi hamda mazkur uy-joylarning ko'p qavatli shaklda daromadi yuqori bo'lmagan aholi qatlami yashovchi qishloq joylarida barpo etilishi ushbu moliyalashtirish mexanizmining kamchiliklari sifatida ko'rishimiz mumkin.

Shaharlarda ko'p qavatli arzon uy-joylar qurilishi dasturi 2017-2020 yillar davomida davom etgan bo'lib, markazlashtirilgan holda xarid qilinishi ko'zda tutilgan tovar va xizmatlarga to'g'ridan to'g'ri ssuda hisobvarag'lari orqali to'lovlar amalga oshirilgan. Vaholanki har bir ko'p qavatli uylarning smeta xarajatlari alohida-alohida ko'rinishda shakllantirilib, ularni moliyalashtirish bo'yicha ham alohida ssuda hisobvarag'i ochilgan. Ammo ssuda hisobvarag'idan mol yetkazib beruvchilarga kelib tushgan mablag'lar hisobidan umumlashtirilgan holda tovar-mahsulotlar xaridi amalga oshirilgan.

Uy-joy qurilishini moliyalashtirishda qurilish tashkilotlarini kreditlash amaliyoti tahlili. Tadqiqotning mazkur qismida Ipoteka-bank tomonidan 2008-2016 yillarda hamda 2020-2024 yillarda pudrat tashkilotlarini qay tarzda moliyalashtirib kelganliklari tahlil etilgan bo'lib, 2017-2019 yillarda shaharlarda uy-joylar qurilishi dasturi mazkur bank orqali, markazlashtirilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilganligi natijasida, Ipoteka-bank tomonidan ushbu davrda tijorat loyihalariga katta e'tibor qaratilmagan.

⁹ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-jadval

“Ipoteka-bank” ATIB tomonidan shahar joylarida qurilishi moliyalashtirilgan uy-joylar (mlrd. soʻmda)¹⁰

№	Hududlar	2017 yil dasturi			2018 yil dasturi			Oʻtgan yilga nisbatan	2019 yil dasturi			Oʻtgan yilga nisbatan	2020 yil dasturi			Oʻtgan yilga nisbatan
		Uy soni	Xonadon soni	Uy-joy qiymati	Uy soni	Xonadon soni	Uy-joy qiymati	Xonadon soni farqi	Uy soni	Xonadon soni	Uy-joy qiymati	Xonadon soni farqi	Uy soni	Xonadon soni	Uy-joy qiymati	Xonadon soni farqi
Jami		198	8 423	1 001,6	421	17 415	3 578,8	9 172	388	17 273	4 639,9	-142	84	4 256	1 257,0	-13 017
1	Qoraqalpogʻiston Res.	7	315	30,6	15	675	103,6	360	10	450	84,5	-225	4	244	67,3	-206
2	Andijon v.	7	294	31,4	20	840	178,0	546	14	664	194,3	-176	4	268	74	-396
3	Buxoro v.	6	252	26,9	10	420	85,6	168	10	420	109,2	0	4	216	59,6	-204
4	Jizzax v.	5	210	22,4	15	645	188,0	435	15	630	161,6	-15	6	236	65,1	-394
5	Qashqadaryo v.	7	315	30,6	14	630	105,9	315	14	588	147,3	-42	3	240	66,2	-348
6	Navoiy v.	5	210	22,4	10	420	85,6	210	8	336	89,5	-84	5	210	58	-126
7	Namangan v.	8	336	35,9	14	588	131,1	252	14	588	152,4	0	3	108	29,8	-480
8	Samarqand v.	9	405	39,4	36	1524	329,0	1 119	16	681	166,3	-843	3	240	66,2	-441
9	Sirdaryo v.	5	225	21,9	10	450	74,6	225	10	420	101,4	-30	5	210	58	-210
10	Surxondaryo v.	5	210	22,4	13	546	110,8	336	10	420	109,8	-126	13	492	135,8	72
11	Toshkent v.	15	624	63,288	52	2163	423,5	1539	40	1599	360,6	-564	4	182	50,2	-1 417
12	Fargʻona v.	5	210	22,4	20	870	168,6	660	14	603	142,5	-267	6	328	90,5	-275
13	Xorazm v.	5	225	21,9	10	450	70,2	225	10	426	96,8	-24	6	300	82,8	-126
14	Toshkent sh.	109	4412	610,1	182	7194	1524,1	2 782	203	9448	2723,6	2 254	18	982	353,5	-8 466


¹⁰ “Ipoteka-bank” ATIB arxiv maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

“Ipoteka-bank” ATIB tomonidan qurilishi moliyalashtirilgan tijorat uy-joylari (mlrd. so‘mda)¹¹

№	Ko‘rsatkichlar	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil
1	Uy-joy soni	16	20	13	10	12	12	11	44	34
2	Xonadon soni	544	644	358	336	347	365	460	1 382	886
3	Umumiy maydoni (ming kv.m.)	38,4	45,1	25,2	31,5	32,7	45,3	38,1	132,9	70,2
4	1 kv.m qiymati (ming so‘mda)	578	708	955	980	1 100	1 157	1 504	1 841	2 336
5	Uy-joy qiymati	22,2	31,9	24,1	30,9	36,0	52,4	57,2	244,7	164,1
6	Ajratilgan mablag‘	15,8	23,3	13,6	15,8	20,3	33,1	38,4	166,7	128,0
6.1	<i>Muammoli kreditga aylangan qismi</i>	<i>0,115</i>	<i>0,152</i>	<i>0,185</i>	<i>0,142</i>	<i>0,112</i>	<i>0,398</i>	<i>0,364</i>	<i>1,800</i>	<i>1,447</i>
7	QMI sug‘urta summasi	16,0	24,3	16,6	21,0	26,6	41,4	44,6	168,8	121,4
8	Kredit qaytmaslik riski sug‘urtasi summasi	5,5	6,7	3,9	5,9	6,6	9,1	10,5	45,8	38,4

¹¹ “Ipoteka-bank” ATIB arxiv ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki 2008-2016 yillarda Ipoteka-bank tomonidan tijorat loyihalari bo'yicha 5 322 ta xonadondan iborat 172 ta ko'p qavatli qiymati 663,4 mlrd. so'mlik uy-joylar qurilishini moliyalashtirish uchun 455,0 mlrd. so'm miqdorida kreditlar ajratilgan. Ushbu loyihalarni moliyalashtirishda 480,8 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari sug'urta qilingan bo'lib, ajratilgan kreditlar bir qismining ta'minoti sifatida 132,6 mlrd. so'mlik kredit qaytmaslik riski sug'urtalanganligi polisi garovi olingan.



7-rasm. Tijorat uy-joylari qurilishini moliyalashtirish uchun ajratilgan kreditlarning muammoga aylangan qismi hamda ta'minoti (foizda)¹²

. cor Muammolikreditsalmogifoizda Kreditqaytmaslikriskisugurta (obs=9)

	Muammo~a	Kredit~a
Muammolikr~a	1.0000	
Kreditqayt~a	-0.4528	1.0000

4-jadval

Tijorat uy-joylarining foydalanishga topshirish muddati va ajratilgan kreditlarning muammoli aktivga aylanishi o'rtasidagi bog'liqlik¹³

№	Yillar kesimida	Muammoli kredit salmog'i	O'z vaqtida foydalanishga topshirilmagan uylar kesimida kechikish vaqti
1.	2008 yil	0,73 %	46 kun
2.	2009 yil	0,65 %	41 kun
3.	2010 yil	1,36 %	88 kun
4.	2011 yil	0,90 %	72 kun
5.	2012 yil	0,55 %	56 kun
6.	2013 yil	1,20 %	84 kun
7.	2014 yil	0,95 %	78 kun
8.	2015 yil	1,08 %	94 kun
9.	2016 yil	1,13 %	106 kun


¹² "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

¹³ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

. cor Muammolikreditsalmogifoizda Ozvaqtidafoydalanishgatopshi (obs=9)

	Muammo~a Ozvaqt~i	
Muammolikr~a	1.0000	
Ozvaqtidaf~i	0.8357	1.0000


Ma'lumotlardan ko'rinadiki, hisobot davrida ajratilgan kreditlarning muammoli aktivga aylanishi hamda kreditlarning ta'minoti (qisman) sifatida kredit qaytmaslik riski sug'urta polislarning garovga olinishi o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud emas. Aksincha bunga qurilish ishlarining belgilangan muddatda yakunlanmasligi hamda xonadonlar sotuvidagi to'xtalishlar sabab bo'lgan.



8-rasm. 2020-2024 yillarda qurilish hamda moliyalashtirish hajmi dinamikasi¹⁴


Tijorat asosidagi kredit mablag'lari hisobidan qurilishi moliyalashtirilgan uylardagi xonadonlar soni oshgan. Ammo loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlari hajmi aksincha kamaygan. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri bu - qurilish-montaj ishlarining 30 foiz qismi bajarilmagan obyektlarni moliyalashtirish boshlanishiga yo'l qo'yilmaganligidir.

¹⁴ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



9-rasm. 2020-2024 yillarda qurilish tashkilotlaridan kelib tushgan kredit arizalari bo'yicha ma'lumot¹⁵

Yana bir sabab bu - qurilishi moliyalashtiriladigan uylarni mazkur kreditning asosiy ta'minoti sifatida garovga taqdim etilishining taqiqlanishi;




10-rasm. 2020-2024 yillarda qurilish tashkilotlaridan kelib tushgan kredit arizalari bo'yicha ma'lumot¹⁶

Hisobot davrida bank tomonidan kreditlash hajmini tushirishdan ko'zlanilgan asosiy maqsad risk darajasini tushirish hisoblangan. Ya'ni, loyiha qiymati sun'iy shishirilmagan hamda unda bank kreditining ulushi qanchalik kam bo'lsa, banklarning loyihani moliyalashtirishdagi risklari shunchalik past bo'ladi.


¹⁵ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

¹⁶ "Ipoteka-bank" ATIB arxiv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi




11-rasm. 2020-2024 yillarda moliyalashtirilgan loyihalar qiymati hamda ajratilgan kreditlar o'rtasidagi nisbat (foizda)¹⁷

Ushbu diagrammadan ko'rishimiz mumkinki ushbu moliyalash riski tobora pasayib bormoqda.



12-rasm. 2020-2024 yillarda ajratilgan kreditlar tarkibidagi muammoli aktivlar qoldig'i (31 dekabr holatiga, mlrd. so'mda)¹⁸

